

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 20 - dekabr

455-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani "Raushan" OFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi "Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-204-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-sonli qarorlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati markazi "O'zgidromet" Qoraqalpog'iston Respublikasi Hidrometrologiya boshqarmasining 2023-yil 31-maydagi 104-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo'ng'iro't tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerdan "Raushan" OFY hududida joylashgan "Raushan" agroposti binosining amalda foydalanib kelinayotgan 0,04 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Hidrometrologiya markaziga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Hidrometrologiya xizmati agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Hidrometrologiya markazi (Sh.Pishenbaev) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F.Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 20-dekabrda  
455-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologiya xizmati agentligi "O'ZGIDROMET"  
Qoraqalpog'iston Respublikasi gidrometeorologiya markazi (QQGIDROMET)ga  
«Raushan» OFY, Baylanis ko'chasidan tanlangan yer uchastkasining  
**T A R X I: M-6 1:1 000**



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi aholi punktida joylashgan, sharq tarafi bo'sh yer maydon, g'arb tarafi aholi yashash uylari, shimol tarafi bo'sh yer maydon va janub taraflari avtomobil yoli.

**WGS-84 Koordinatasi**

1. 43°11'11,94"C 58°35'5,58"B	3. 43°11'11,137"C 58°35'4,958"B
2. 43°11'11,94"C 58°35'5,58"B	4. 43°11'11,766"C 58°35'4,747"B

Tuman markazidan 26.53 km radius masofada

Yeruchastkasi maydoni (ga): 0,04 ga

Yer fondi: Aholi punkt yerlari

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: **Agropost binosi qurish uchun**

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan